

SEMIZLIK FONIDA YURAK ISHEMIK KASALLIGINING KLINIK, FUNKSIONAL VA GENETIK PREDIKTORLARI

G.O. Tilepbaeva

S.K. Nuritdinova

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, «Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» DM, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17851472>

Kirish va tadqiqot dolzarbligi.

Semizlik (obezitas) yurak-qon tomir kasalliklarining, xususan yurak ishemik kasalligining (YIK) asosiy risk omillaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, global semizlik prevalensi 2024-yilda 650 million kattalarda aniqlangan. Semizlik faqat lipid va glyukoza almashinuvini o'zgartirmaydi, balki surunkali yallig'lanish va endotel disfunktsiyasi orqali YIK rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, genetik faktlar (masalan, lipid metabolizmi va insulin sezuvchanligini tartibga soluvchi polimorfizmlar) semizlik va YIK o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi.

Tadqiqot maqsadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — semizlik fonida YIK bilan og'riqan bemorlarning klinik, funksional va genetik prediktorlarini aniqlash va hayot sifatiga ta'sirini baholashdir.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotga 120 nafar bemor jalb qilindi (65 erkak, 55 ayol; o'rtacha yosh $57,3 \pm 9,1$ yil) bo'lib, ularning BMI ko'rsatkichiga ko'ra normal, ortiqcha vaznli va semiz guruhlarga ajratildi. Diagnostik tekshiruvlar:

- **Klinik tekshiruv:** qon bosimi, lipid profili, glyukoza, EKG, ExoKG
- **Funksional tekshiruvlar:** stress-test, VO₂max, endotellyar funktsiyani baholash
- **Genetik tahlillar:** APOE, FTO, PPAR γ genlaridagi polimorfizmlarni aniqlash

Bemorlarning hayot sifati **SF-36 so'rovnomasi** yordamida baholandi. Ma'lumotlar **SPSS 26.0** dasturida tahlil qilindi, $p < 0.05$ statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

Natijalar.

Semizlik fonida YIK bilan og'riqan bemorlarda quyidagi natijalar aniqlangan: Jismoniy faoliyat va energiya darajasi semizlik darajasi oshgani sari pasayadi ($p < 0.01$). Endotel disfunktsiyasi va VO₂max ko'rsatkichlari BMI bilan salbiy bog'liq ($r = -0.44$, $p < 0.01$). Genetik analiz natijalariga ko'ra, APOE $\epsilon 4$ alleli va FTO risk alleli semizlik va YIK birgalikda uchragan bemorlarda ko'proq aniqlangan. Korrelyatsion tahlil hayot sifati va genetik predispozitsiyalar o'rtasida o'rtacha salbiy bog'liqlikni ko'rsatdi ($r = -0.32$, $p < 0.05$).

Xulosa.

Semizlik fonida YIK bilan og'riqan bemorlarning hayot sifati sezilarli darajada pasaygan. Jismoniy faoliyat, umumiy sog'liq va ruhiy salomatlik ko'rsatkichlari BMI va genetik risklar bilan salbiy bog'liq. Bu bemorlarni klinik, psixologik va genetik monitoring orqali individual davolash strategiyalari bilan qo'llab-quvvatlash zarur.